Hisoblash texnikasi taraqqiyotida XIX asr "dasturlashtiriladigan mexanik qurilmalar davri" sifatida ajralib turadi. Ushbu davrning muhim ixtirosi Charlz Bebbijning "analitik mashina"si bo'lib, unga Ada Lovelace dastur yozishga muvaffaq bo'lgan. Aynan ushbu mashinalar keyinchalik kompyuterlarning ixtiro qilinishiga asos bo'ldi. 1930–1940-yillar "elektromexanika davri" deb yuritilib, bu yillarda Z3 va Harvard Mark I nomli dasturlashtiriladigan kompyuterlar yaratilgan. Ular elektr toki va magnit relslar asosida ishlagan bo'lib, daqiqasiga 40–45 ta amalni bajarishga qodir edi.

Hisoblash texnikasi taraqqiyotining eng muhim davri "elektron kompyuterlar davri" bo'lib, bu davr shartli ravishda besh bosqichga bo'linadi. Avvaliga lampali kompyuterlar yaratilgan, keyinchalik esa tranzistorli, integral sxemali, mikroprotessorli kompyuterlar hamda sun'iy intellekt va raqamli tarmoqlarga asoslangan tizimlar shakllangan. 1940–1956-yillar lampali kompyuterlar davri hisoblanib, bu davrda og'irligi 30 tonnadan oshgan ENIAC nomli vakuumli lampalar asosida ishlaydigan kompyuter yaratilgan. Ushbu qurilma juda katta issiqlik chiqarganligi va hajm jihatdan ulkan bo'lganligi sababli keng tarqalmagan. 1947-yil 16-dekabrda AQShning Nyu-Jersi shtatidagi Bell laboratoriyasida olimlar Jon Bardeen, Uolter Brattain va Uilyam Shokli ilk tranzistorni ixtiro qilishga muvaffaq bo'lgan va bu bilan 1956–1964-yillarni o'z ichiga olgan tranzistorli kompyuterlar davri boshlangan. Ushbu davrda UNIVAC-II, IBM 1401 kabi mashinalar ishlab chiqilgan bo'lib, hisoblash ishonchligi oshgan, energiya sarfi kamaygan va qurilmalar hajmi kichraygan.

1964–1971-yillar integral sxemali kompyuterlarning ishlab chiqarilishi bilan tavsiflanadi. 1958-yilda fizik olim Jek Kilbi "Texas Instruments" kompaniyasida integral mikrosxemaning ilk ishlaydigan modelini yaratgan. Oradan bir yil o'tib, Robert Noys mikrosxemani integratsiyalash uslubini takomillashtirib, uni sanoatga tatbiq etgan. Natijada IBM 360 universal kompyuteri ishlab chiqilgan va turli sohalarda qo'llanilgan. AQSh bank-moliya sektorida ushbu kompyuter to'lovlar, tranzaksiyalar, kreditlash va depozitlar bo'yicha ma'lumotlarni boshqarishda ishlatilgan, shuningdek, davlat va mudofaa sohaslarida statistik tahlil va ma'lumotlarni shifrlashda keng foydalanilgan. Ilmiy tadqiqot muassasalarida esa fizika, kimyo, muhandislik va boshqa sohalarda ma'lumotlarni modellashtirish va tahlil qilishda ilmiy burilish yasagan.

Sanoat va ishlab chiqarishni rejalashtirish, avtomatlashtirish, logistika tizimlarini boshqarish maqsadida General Motors va Boeing kompaniyalari IBM 360 kompyuteridan foydalangan. Ushbu texnologiyaning tibbiyot, sog'liqni saqlash, telekommunikatsiya, transport, ta'lim va sport sohaslarida joriy etilishi raqamlashtirish jarayonlarini boshlab bergan. Sohalarning raqamli transformatsiyasi fonida bozor munosabatlarining ham raqamli tus olishi iqtisodiy taraqqiyotning zamonaviy yo'nalishlariga zamin yaratgan. Korxonalar hisoblash texnikasidan foydalanish mehnat samaradorligini oshirish, ish hajmi va ishchi kuchi sarfini kamaytirishdagi rolini anglab yetib, ushbu yo'nalishga katta hajmdagi sarmoyalarni yo'naltira boshlagan.

1971-yil 15-noyabrda Intel kompaniyasining muhandislari Marsian Hoff, Federico Faggin, Stanley Mazor va Yaponiyaning Busicom kompaniyasi muhandisi Masatoshi Shima 2300 ta tranzistordan iborat ilk mikroprotessorni rasmiy ravishda dunyoga taqdim etdilar. Ushbu mikroprotessor Intel 4004 deb nomlanib, personal kompyuterlar (PC) paydo bo'lishiga katta hissa qo'shdi va tez orada ommalashib, har bir uyga kira boshladi. Ushbu kompyuterlarning keng tarqalishi raqamlashtirish jarayonini keskin jadallashtirib yubordi va raqamli iqtisodiy munosabatlarning ahamiyatining ortishiga xizmat qildi. Olimlar kompyuterlarni raqamli



iqtisodiyotning yuragi sifatida baholab, uni raqamli mahsulotlar va xizmatlarning keng tarqalishiga, elektron tijorat, ofis dasturlari, onlayn to'lov tizimlari, robototexnika, sensorli tizimlar, aqlli qurilmalar va raqamli tarmoqlarning shakllanishidagi asosiy omil sifatida ko'radilar.

Beshinchi avlod kompyuterlari bir nechta texnologiyalar, qurilmalar va aqlli tizimlar majmuasidan iborat bo'lib, ular o'zaro integratsiyalashgan holda ishlaydi va sun'iy intellekt asosida qarorlar qabul qiladi. Ular kompyuter, sun'iy intellekt, raqamli tarmoqlar, bulutli xizmatlar, o'z-o'zini o'rgatuvchi dasturlar hamda Big Data tizimlarining kombinatsiyasi ko'rinishida namoyon bo'ladi. Hisoblash mashinalarining beshinchi avlodi sifatida qaralayotgan sun'iy intellekt va raqamli tarmoqlar foydalanuvchilarga bir qator afzalliklarni taqdim etadi. Avvalo, sun'iy intellekt tezkorlik, aniqlik, barqarorlik, avtomatlashtirish, ma'lumotlarni chuqur tahlil qilish, til, tasvir va ovozni tanish hamda mashina orqali o'rganishning eng samarali imkoniyatlarini yaratadi. Raqamli tarmoqlar esa internet, mobil aloqa va kompyuter tarmoqlarini o'z ichiga olgan zamonaviy infratuzilma sifatida global aloqadorlik, tezkor axborot almashinuvi, masofaviy ish va ta'lim, elektron tijorat, moslashuvchanlik va xavfsizlik nazorati bilan bog'liq munosabatlarning takomillashuviga imkon beradi.

Raqamli texnologiyalar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) sohasida qo'llaniladigan bir qator qonuniyatlar mavjud bo'lib, ular axborotni uzatish, saqlash, qayta ishlash va baholash jarayonlarida barqaror va takrorlanuvchi texnik, matematik hamda tizimli asoslar hisoblanadi. Ular raqamli tizimlarning samarali ishlashi va taraqqiyotini ta'minlashga xizmat qiladi. Ushbu qonuniyatlar ilmiy-nazariy tamoyillarga, texnologik imkoniyatlarga va raqamli dunyodagi real muammolarga asoslangan holda ishlab chiqilgan bo'lib, ular texnologik tizimlarning rivojlanishini yo'naltiradi, samaradorligini oshiradi va foydalanuvchilar ehtiyojlariga moslashish imkonini beradi. Raqamli texnologiyalar va axborot-kommunikatsiya tizimlarining zamonaviy ishlashi texnik imkoniyatlar, tarmoq samaradorligi, axborot nazariyasi va algoritmik yondashuvlarning to'g'ri qo'llanilishiga bog'liq jarayon hisoblanadi.

Ushbu qonuniyatlarga Mur qonuni, Metkalf qonuni, Shennon qonuni, murakkablik va samaradorlik qonuniyati, Nyukvist–Shennon namunaviylash qonuni, ma'lumotlar sig'imi qonuni va ko'p martalik ishlatish printsipti kiradi. Mur qonuniga ko'ra, mikrochip (protessor)dagi tranzistorlar soni har 18–24 oyda ikki baravarga ortadi. Metkalf qonuni tarmoqning foydasi unga ulanadigan foydalanuvchilar sonining kvadratiga tengligini ta'kidlaydi. Shennon qonuni esa har qanday axborot signalida xatolik bo'lsa ham, uni to'g'ri uzatish uchun yetarli zaxira (redundancy) bo'lishi zarurligini ko'rsatadi. Murakkablik va samaradorlik qonuniyatiga ko'ra, tizim qanchalik murakkablashsa, uni boshqarish uchun sun'iy intellekt, avtomatlashtirish va optimallashtirish zarur bo'ladi. Nyukvist–Shennon namunaviylash qonuni analog signalni to'g'ri raqamlashtirish uchun uni kamida ikki baravar yuqori chastotada namuna olish kerakligini bildiradi. Ma'lumotlar sig'imi qonuniga ko'ra, tizimda qancha ko'p axborot bo'lsa, uni saqlash, uzatish va tahlil qilish uchun shuncha ko'p resurs kerak bo'ladi. Ko'p martalik ishlatish printsipti esa biror texnologik yechim yoki algoritm turli sohalarida qayta ishlatilishi mumkinligini bildiradi.

Raqamli texnologiyalar taraqqiyotini bashoratlashga xizmat qilgan va o'zining qarashlarida mikrochiplardagi tranzistorlar soni har 18 oyda ikki baravar o'sib borishini ta'kidlagan Tomas Mur g'oyasi bugungi kunda ham dolzarbligini yo'qotmagan. 2023-yilda Apple kompaniyasi tomonidan ishlab chiqarilgan smartfonlarning ish samaradorligi 1985-yilda butun dunyoda mavjud bo'lgan barcha hisoblash texnika va texnologiyalardan kuchliroq bo'lganligi aynan Mur qonunining real hayotdagi tasdig'i sifatida qaralmoqda. Stenford universiteti professori Ilya Stribullayev o'z ma'ruza va maqolalarida Mur qonunining amaliy asoslanganligini tahlil qilgan va "Soft" tizimining takomillashuvi kelajakda har bir raqamli munosabatlar subyekti undan erkin foydalanish imkoniyatiga ega bo'lishini ilmiy jihatdan asoslab bergan¹.


Qonuniyatlar orasida tarmoq samaradorligi qonuniyati raqamli iqtisodiyotning rivojlanishida alohida o'ringa ega bo'lib, ushbu qonuniyat axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining nafillik darajasi tarmoq ishtirokchilari soniga bevosita bog'liqligini anglatadi. Masalan, Metcalfe qonuniga ko'ra, tarmoqning foydalligi unga ulangan foydalanuvchilar sonining kvadratiga teng bo'lib, foydalanuvchilar soni ortgani sari axborot almashinuvi hajmi hamda iqtisodiy samaradorlik ham oshadi. Shannon sig'imi qonuni raqamli signallarni uzatishda maksimal tezlikni aniqlashga qaratilgan bo'lib, u telekommunikatsiya tarmoqlari, optik tolali aloqa, mobil tarmoqlar va sun'iy yo'ldosh texnologiyalarining ishlashining ilmiy asoslarini belgilaydi. Algoritmik yondashuvlar esa sun'iy intellekt, avtomatlashtirish, ma'lumotlar tahlili va mashinali o'rganish kabi ilg'or texnologik yo'nalishlarda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu yondashuvlar hisoblash texnikalarining quvvatidan samarali foydalanishga, vaqt va resurslarni tejashga, murakkab muammolarni aniqlik bilan hal qilishga keng imkoniyat yaratadi. Jumladan, sun'iy intellekt tizimlarining o'z-o'zini o'rganishi algoritmik qonuniyatlarga asoslanadi.

Bugungi zamonaviy raqamli texnologiyalar texnik, matematik va tizimli qonuniyatlar majmuasi asosida shakllanib, zamonaviy iqtisodiyot, sanoat, ta'lim va boshqaruv sohalarining rivojlanishiga keng yo'l ochmoqda. Tadqiqot mavzusining mazmun-mohiyatini to'g'ri anglashda esa elektron hisoblash mashinalarining tarixiy

1 Ilya Stribullayev. Alex Dang. The Venture Mindset (How to make smarter bets and achieve extraordinary growth) Portfolio / Penguin (New York). 2024. -P. 320.

taraqqiyotini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Ko'plab iqtisodchi olimlarning fikriga ko'ra, raqamli iqtisodiyotning shakllanishi va rivojlanishida kompyuter texnologiyalarining o'ni markaziy va hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lib, aynan ularning rivojlanishi raqamli iqtisodning ravnaq topishiga turtki bergan. Kompyuter texnologiyalari raqamli iqtisodiyot uchun asosiy infratuzilma vazifasini bajaradi, chunki har qanday raqamli jarayon – ma'lumotlarni saqlash, qayta ishlash, uzatish – aynan kompyuterlar ishtirokisiz amalga oshmaydi.

Kompyuterlar raqamli iqtisodiy jarayonlarda muhim sanaluvchi katta hajmdagi ma'lumotlarni tez va aniq tahlil qilish orqali iqtisodiy munosabatlar subyektlarining faoliyatini avtomatlashtirish imkonini beradi. Qolaversa, elektron tijorat va onlayn xizmatlar ko'rsatish, ishlab chiqarish va xizmatlar yaratish jarayonlarini avtomatlashtirish, dasturiy ta'minot tizimlarini ishlab chiqish sohalarida ham kompyuter texnologiyalarining o'ni beqiyos bo'lib, bu vositaning zamonaviy iqtisodiy strukturalarda tutgan o'ni yildan-yilga ortib bormoqda (1-rasm).



1-rasm. Hisoblash mashinalarining turlari

Hisoblash mashinalarining raqamli iqtisodiyot taraqqiyotiga qo'shadigan hissasi ko'plab yo'nalishlarda namoyon bo'ladi. Superkompyuterlar ilmiy hisob-kitoblar uchun mo'ljallangan texnik vosita sifatida raqamli iqtisodiyotda murakkab va katta hajmdagi ma'lumotlarni real vaqt rejimida qayta ishlash imkoniyatini yaratadi va bu orqali raqamli bozor munosabatlari subyektlarining tezkor hamda aniq qarorlar qabul qilishiga, shuningdek, istiqboldagi yangi imkoniyatlarni aniqlashga zamin yaratadi. Jumladan, 2000-yillarning birinchi o'n yilligida Google, Amazon, Facebook, Netflix, Tesla kabi yirik kompaniyalar Big Data tahlillaridan samarali foydalangan holda katta hajmdagi sarmoya va keng auditoriyaga erishishga muvaffaq bo'ldi. 2003-yildan boshlab Google kompaniyasi Big Data asosida reklama samaradorligini oshirishga e'tibor qaratdi va Google AdSense xizmatini ishga tushirdi. Ushbu servis veb-saytlardagi foydalanuvchi kontentiga mos ravishda reklama joylashtiruvchi avtomatik tizimni ishga tushirdi. 2006-yilda YouTube platformasini xarid qilgan Google foydalanuvchilarning video ko'rish odatlari asosida reklama algoritmlarini takomillashtirdi va iste'molchilarning ehtiyojlariga mos kontentni taqdim etish imkoniyatini yaratdi.

2007-yildan boshlab Android operatsion tizimi foydalanuvchilarining xatti-harakatlari Big Data asosida tahlil qilinib, ularning talab va qiziqishlari chuqur o'rganila boshlandi. Google Play xizmatining natijalari asosida foydalanuvchilarga kerakli va ommabop ilovalar tavsiya etilishi yo'lga qo'yildi, bu esa ilovalarning yuklab olinishi ko'rsatkichlarini sezilarli darajada oshirdi. Personalizatsiyalangan reklama sohasida esa har bir foydalanuvchiga individual qiziqishlariga mos reklamalar ko'rsatilishi reklama daromadlarining keskin oshishiga olib keldi. Big Data tahlillari asosida foydalanuvchi tajribasini takomillashtirish bo'yicha algoritmlar ishlab chiqildi va Android tizimi foydalanuvchi xatti-harakatlariga mos ravishda optimallashtirildi, natijada qurilma foydalanuvchiga kerakli xizmat yoki mahsulotni tezda taklif eta boshladi.

2010-yildan boshlab sun'iy intellekt va mashinali o'qitish texnologiyalari orqali foydalanuvchi xatti-harakatlarini chuqur tahlil qilishning yangi bosqichi boshlab berildi. Algoritmlar endilikda ma'lumotlarni nafaqat yig'ib, balki ularni real vaqt rejimida tahlil qilish, foydalanuvchining ehtiyojlarini oldindan bashorat qilish darajasiga yetdi. Mashinali o'qitish orqali tizimlar o'z-o'zini takomillashtirishga o'rgatildi va foydalanuvchilar bilan interaktiv aloqada yanada aniqroq natijalarga erishila boshlandi. Superkompyuterlar orqali amalga oshirilgan Big Data tahlillari raqamli iqtisodiyotning muhim harakatlantiruvchi kuchiga aylandi, mijoz markaziga yo'naltirilgan xizmatlar, real vaqtli qarorlar hamda individual ehtiyojlarga asoslangan takliflar orqali kompaniyalar iqtisodiy samaradorligini oshirishga muvaffaq bo'ldi. Bu esa global miqyosda raqamli mahsulotlar, xizmatlar va platformalarning jadal rivojlanishiga xizmat qildi.



Sun'iy intellekt yo'nalishida superkompyuterlar kuchli hisoblash quvvati orqali sun'iy intellekt modellarini mashq qilish imkonini yaratadi. Natijada avtomatlashtirilgan xizmatlar, chatbotlar, aqlli yordamchilar kabi texnologiyalar vujudga keldi. Bu esa ko'plab sohalarda inson mehnatini kamaytirish, tezlik va aniqlikni oshirish imkonini berdi. Iqlim va energetika modellashtirishida superkompyuterlar ob-havo, issiqlik oqimi va energetika tizimlarining harakatini prognoz qilishda qo'llanilib, barqaror infratuzilma loyihalarini ishlab chiqish, energiya resurslarini samarali boshqarish va ekologik xavfsizlikni ta'minlash imkonini oshirdi.

Moliyaviy bozorlarni simulyatsiya qilish orqali superkompyuterlar bozor risklarini baholash, algoritmik savdo tizimlarini yaratish imkonini taqdim etdi. Bu esa moliyaviy texnologiyalar rivojiga turtki bergan holda investitsiya qarorlarini yanada asosli qilishga xizmat qildi. Farmatsevtika va sog'liqni saqlash sohasida superkompyuterlar yordamida dori vositalari sinovdan o'tkaziladi, genetik modellar yaratiladi va tibbiyotda raqamli transformatsiyaga zamin yaratiladi. Natijada shaxsga xos davolash, tezkor tashxis va dori vositalarini ishlab chiqish imkoniyatlari shakllanmoqda. Raqamli xavfsizlik (kiberxavfsizlik) sohasida esa superkompyuterlar kriptografik algoritmlarni yaratish, raqamli tahdidlarni aniqlash va ularni oldindan simulyatsiya qilish orqali onlayn tizimlar va foydalanuvchi ma'lumotlarining xavfsizligini ta'minlashga xizmat qilmoqda.

Markaziy kompyuterlar (mainframe) yuqori ishonchlilik, katta hajmdagi ma'lumotlar bilan ishlash quvvati hamda barqaror ishlash imkoniyatiga ega bo'lib, ularning asosiy foydalanuvchilari yirik korporatsiyalar, davlat tashkilotlari va moliyaviy institutlar hisoblanadi. Ular raqamli iqtisodiyot infratuzilmasining markaziy ustunlaridan biri bo'lib xizmat qiladi (1-jadval).

1-jadval. Mainframe tizimlari orqali bajariladigan funksiyalar va ularning raqamli iqtisodiyotga ta'siri

Yo'nalish	Mainframe orqali bajariladigan funksiyalar	Raqamli iqtisodga ta'siri
Bank tizimlari	Kundalik tranzaksiyalar, mijozlar ma'lumotlari va xavfsiz to'lovlar	Fintech rivojlanadi, onlayn banking ommalashadi
Sug'urta kompaniyalari	Millionlab mijozlar ma'lumotini boshqarish	Raqamli sug'urta tizimlari samarali ishlaydi
Soliq va davlat moliyasi	Soliq hisobotlari, audit va real vaqtda monitoring	Davlat moliyaviy raqamlashtiriladi
Aviatsiya va temiryo'l tizimlari	Bilet bron qilish, yo'lovchi axboroti	Transport infratuzilmasi raqamlashtiriladi
Onlayn savdo va logistika	Buyurtma qayd qilish, ombor nazorati	Elektron tijorat tarmoqlari barqaror ishlaydi
Kiberxavfsizlik	Ko'p foydalanuvchili tizimlar xavfsizligi	Axborot himoyasi kuchayadi

Minikompyuterlar (midrange computers) – bir nechta foydalanuvchiga xizmat ko'rsatadi, superkompyuter va shaxsiy kompyuter oralig'idagi qurilma bo'lib, ular o'z vaqtida bir nechta foydalanuvchiga xizmat ko'rsatish uchun yaratilgan. O'z davrida ushbu hisoblash texnikalari asosan kichik va o'rta korxonalar (SME) hamda ilmiy-tadqiqot muassasalarda ishlatilgan. Bugungi kunda ularning o'rnini ko'pincha serverlar va bulutli texnologiyalar egallagan bo'lsada, ular raqamli iqtisodiyot rivojida tarixiy va texnologik poydevor sifatida muhim rol o'ynagan (2-jadval).

2-jadval. Minikompyuterlar orqali amalga oshirilgan funksiyalar va ularning raqamli iqtisodiyotga ta'siri

Yo'nalish	Minikompyuter orqali bajarilgan funksiyalar	Raqamli iqtisodga ta'siri
Kichik biznes infratuzilmasi	Foydalanuvchilar o'rtasida resurslarni bo'lishish, ma'lumotlarni qayta ishlash	Kichik raqamli korxonalarni qo'llab-quvvatlash
Mahalliy tarmoqni boshqarish	Server vazifasini bajarib, printer, fayl, dasturlarni umumlashtirish	Mahalliy avtomatlashtirish va raqamli faoliyatni rivojlantirish
Ilmiy-texnik hisob-kitoblar	Oddiy matematik modellashtirish va tahlillar	Akademik va texnologik izlanishlarga zamin yaratdi
Mahalliy xizmat ko'rsatish	Bank filiallari, sog'liqni saqlash punktlari uchun lokal bazalar	Sektorlar kesimida xizmatlarning raqamli shaklga o'tishi
Dasturiy sinov va ishlab chiqish	Kichik dasturlarni yaratish, test qilish muhitlari	Dasturchilar va IT-mutaxassislar tayyorlashda yordam berdi



Shaxsiy kompyuterlar (PC) - stol kompyuterilari raqamli iqtisodiyotning eng ommaviy va fundamental vositasi hisoblanadi. 1990-2010-yillardagi eng muhim hisoblash texnikasi bo'lib, keng tarqalganligi, arzonligi, soddaligi va ko'p funksiyaliligi bilan iqtisodiy afzallik bergan. Shaxsiy kompyuterlar orqali insonlar, korxonalar va davlat tashkilotlari raqamli texnologiyalar bilan faol muloqot qilib, foydalanuvchining raqamli iqtisodga kirib borishi aynan iqtisodiy muloqotlar jarayonida sodir bo'ldi. 3-jadvalda kompyuterlarning raqamli iqtisodiyotga ta'siri ko'rsatib o'tilgan (3-jadval).

3-jadval. Raqamli vositalar orqali faoliyat turlarining iqtisodiy jarayonlarga ta'siri

Yo'nalish	Vazifasi	Raqamli iqtisodga ta'siri
Kichik va o'rta biznes (SME)	Hisob-kitob, elektron tijorat, mijozlar bilan aloqa	Biznes jarayonlar avtomatlashtiriladi, onlayn savdo rivojlanadi
Masofaviy ish (freelance, remote)	Internet orqali ishlash, loyiha yuritish	Mehnat bozori raqamlashtiriladi, ish joyi erkinlashadi
Ta'lim va ko'nikmalar	Onlayn kurslar, sinovlar, testlar	Raqamli savodxonlik ortadi, bilimga kirish imkoniyati oshadi
Davlat xizmatlari	Soliq, ariza, ro'yxatdan o'tish va boshqa e-hukumat xizmatlari	Elektron hukumat tizimlari bilan aloqalar osonlashadi
Moliyaviy operatsiyalar	Internet-banking, elektron to'lovlar	Fintech xizmatlari ommalashadi, naqd pulsiz iqtisod kuchayadi
Yaratuvchanlik va texnologik ishlab chiqarish	Dasturlash, dizayn, kontent yaratish	Yangi mahsulotlar va raqamli xizmatlar paydo bo'ladi
Axborot almashinuvi	Elektron pochta, videokonferensiya, hujjat aylanishi	Tezkor aloqa va hamkorlik kuchayadi

Mobil kompyuterlar - kompyuter xususiyatlariga ega smartfonlar, ya'ni protsessor, operatsion tizim (Android, iOS), xotira, internetga ulanish imkoniyatiga ega bo'lgan noutbuk, netbuk, planshet, smartfon va ultrabuk kabi boshqa mobil qurilmalar kiradi. Ahamiyatlisi bu qurilmalar istalgan joyda foydalanish imkonini beradigan, portativ, qulay va ko'chma hisoblash qurilmalari bo'lib, ular bugungi raqamli iqtisodiyotning harakatlanuvchi va eng faol vositalaridan biri hisoblanadi. Ushbu qurilmalar ko'chma va doimiy ulanish imkoniga egaligi, arzon va ommaviyligi tufayli shaxsiy kompyuterlarga qaraganda kengroq tarqalgan hamda ustun mavqega ega. 4-jadvalda mobil kompyuterlarning raqamli iqtisodiyotda tutgan ahamiyati tushuntirib berilgan (4-jadval).

4-jadval. Mobil texnologiyalar asosida yo'lga qo'yilgan faoliyat yo'nalishlarining raqamli iqtisodiyotga ta'siri

Yo'nalish	Vazifasi	Raqamli iqtisodga ta'siri
Masofaviy ish (remote work)	Noutbuklar va planshetlar orqali istalgan joydan ishlash	Ishchilarning moslashuvchanligi va raqamli bandlik ortadi
Elektron tijorat (e-commerce)	Mobil qurilmalar orqali onlayn xarid, to'lov, reklama	Onlayn bozorlar kengayadi, mobil savdo hajmi ortadi
Mobil bank xizmatlari	Smartfon orqali banking, to'lov, mablag' boshqaruvi	Fintech xizmatlari va naqd pulsiz iqtisod kuchayadi
Ta'lim va ko'nikmalar	Planshet va smartfon orqali onlayn darslar, testlar	Mobil o'qitish platformalari orqali raqamli savodxonlik kengayadi
Sog'liqni saqlash (e-health)	Mobil ilovalar orqali maslahat, tahlil natijalari	Aholining raqamli sog'liqni saqlashga kirishi osonlashadi
Davlat xizmatlari	Mobil ilovalar orqali soliq, ro'yxat, murojaatlar	E-hukumat xizmatlari keng ommaga yaqinlashadi
Kichik tadbirkorlik (micro-business)	Telefon yoki planshet orqali xizmat ko'rsatish, marketing	Kichik biznes raqamli iqtisodga osongina integratsiyalanadi

Olimlarning xulosalariga tayangan holda shuni alohida ta'kidlash joizki, bugungi dunyo iqtisodiy qiyofasini belgilashda Big Data, fintech, raqamli xizmatlar va kiberxavfsizlik yo'nalishlarida olib borilayotgan ishlarning ko'lami muhim ahamiyat kasb etadi. Ayni paytda hisoblash texnikalari raqamli iqtisodiyotning ajralmas tarkibiy qismi sifatida ijtimoiy hayotning turli jabhalariga chuqur integratsiyalashuv jarayonini boshdan kechirmoqda. Kompyuterlar, serverlar, sun'iy intellekt tizimlari va superkompyuterlar yordamida katta hajmdagi ma'lumotlar tezkor tahlil qilinmoqda, moliyaviy operatsiyalar avtomatlashtirilmoqda, raqamli xizmatlar takomillashtirilmoqda va axborot xavfsizligini ta'minlash bo'yicha faoliyat raqamlashtirish bosqichiga o'tayapti.



Big Data tahlilida hisoblash texnikasining o'рни beqiyosdir. Chunki Big Data oddiy dasturiy vositalar orqali qayta ishlashga yaramaydigan darajada katta, murakkab va tez o'zgaruvchan ma'lumotlar to'plamidir. Ularning foydali bilimga aylanishi zamonaviy hisoblash texnikasiz imkonsizdir. Superkompyuterlar va bulutli hisoblash platformalari Big Data tahlilini real vaqt rejimida amalga oshirish imkonini beradi. Hisoblash texnikasi ma'lumotlarni tozalash, klasterlash, bashorat qilish kabi muhim algoritmlarni bajaradi.

Hisoblash texnikalarining fintech sohasidagi asosiy vazifasi moliyaviy xizmatlarni raqamlashtirish orqali tez, xavfsiz va foydalanuvchiga qulay shaklda yetkazib berishni ta'minlashdan iborat bo'lib, bu jarayon algoritmik savdo tizimlari va blokcheyn texnologiyalariga asoslanadi. Ushbu texnologiyalar mobil banking va to'lov tizimlarining barqaror faoliyatini yo'lga qo'ygan bo'lib, PayPal, Stripe, Revolut, Click kabi o'nlab global platformalar faoliyatini qo'llab-quvvatlamogda. Ayniqsa, O'zbekistonda "Humo", "Uzcard", "Payme", "Click" kabi mahalliy raqamli to'lov tizimlarining keng joriy etilishi, mobil ilovalar orqali moliyaviy xizmatlarga kirish imkoniyatlarining kengayishi hisobiga aholining moliyaviy inklyuziyasi oshdi. Bu esa naqd pulsiz iqtisodiyotga o'tish, elektron tijoratni rivojlantirish va raqamli iqtisodiy munosabatlarni chuqurlashtirishda hisoblash texnologiyalarining o'rnini sezilarli darajada oshirmogda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Hisoblash texnikasi taraqqiyotining bosqichma-bosqich evolyutsiyasi nafaqat texnologik, balki iqtisodiy rivojlanish jarayonlariga ham chuqur ta'sir ko'rsatdi. Tadqiqot davomida shunga ishonch hosil qilindiki, mexanik qurilmalardan tortib sun'iy intellekt asosida ishlovchi tizimlargacha bo'lgan tarixiy rivojlanish bugungi raqamli iqtisodiyotning shakllanishi va barqaror rivojlanishi uchun mustahkam poydevor bo'lib xizmat qilmogda. Big Data, fintech, raqamli xizmatlar va kiberxavfsizlik yo'nalishlarida hisoblash texnologiyalarining keng qo'llanilishi iqtisodiy faoliyatni tezkor, aniq va samarali amalga oshirish imkonini yaratdi. Ayniqsa, superkompyuterlar, markaziy kompyuterlar (mainframe), mobil qurilmalar va sun'iy intellekt texnologiyalari orqali amalga oshirilgan avtomatlashtirilgan tahlillar, algoritmik boshqaruvlar va foydalanuvchi markaziga yo'naltirilgan xizmatlar raqamli iqtisodiyotning poydevoriga aylanib, uni zamonaviy iqtisodiy tizimning funksional ustunlaridan biriga aylantirdi.

To'plangan ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatmogdaki, hozirgi kunda kompyuter texnologiyalari iqtisodiyotning barcha segmentlariga, ayniqsa bozorlar, bank tizimi, sog'liqni saqlash, ta'lim, davlat boshqaruvi, logistika va ishlab chiqarish sohalariga chuqur singib ketgan. Bu texnologiyalar ushbu sohalarning moliyaviy taraqqiyotiga bevosita hissa qo'shmogda. Kompyuterlar strategik iqtisodiy qarorlar qabul qilishda asosiy vosita sifatida maydonga chiqib, bozorni tahlil qilishning kuchli instrumentiga aylangan. O'zbekistonda raqamlashtirish doirasida olib borilayotgan islohotlar va raqamli infratuzilmani mustahkamlashga qaratilgan tashabbuslar esa hisoblash texnikasi rivoji bilan uzviy bog'langan. Xususan, mamlakatimizda fintech xizmatlarining kengayishi, elektron hukumat xizmatlarining joriy etilishi, ta'lim va sog'liqni saqlash kabi zarur sohalarning raqamlashtirilishida yetakchi korxonalar tomonidan ishlab chiqilgan axborot texnologiyalari va tizimlarning o'рни katta ahamiyat kasb etmogda.

Shunday qilib, hisoblash mashinalari taraqqiyoti insoniyat taraqqiyotining eng muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmogda. Ularning raqamli iqtisodiyotdagi o'рни nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshirish, balki inson salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarishga xizmat qiluvchi global infratuzilmaviy tizimlarni yaratishda ham ustuvor ahamiyatga ega. Kelgusida ushbu texnologiyalarning chuqur tahlili va amaliyotga tatbiqi orqali raqamli iqtisodiyotning barqarorligini ta'minlash, yangi ish o'rinlari va bozor segmentlarini shakllantirish uchun zaruriy poydevor yaratiladi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Brynjolfsson, E. & McAfee, A. The Second Machine Age: Work, Progress, and Prosperity in a Time of Brilliant Technologies (2014, W. W. Norton & Company)
2. Brynjolfsson, E. & Saunders, A. Wired for Innovation: How Information Technology Is Reshaping the Economy (2009, MIT Press)
3. Coyle, D. (1997). The Weightless World: Strategies for Managing the Digital Economy. MIT Press;
4. Coyle, D. (2014). GDP: A Brief but Affectionate History. Princeton University Press;
5. Frey, C. B. (2019). The Technology Trap: Capital, Labor, and Power in the Age of Automation. Princeton University Press;
6. Graham, M. (2019). Digital labour and development: impacts of global digital labour platforms and the gig economy. International Development Planning Review, 41(1), 1–15;
7. Ilya Strebullayev. Alex Dang. The Venture Mindset (How to make smarter bets and achieve extraordinary growth) Portfolio / Penguin (New York). 2024. -P. 320.
8. Jon Meynard Keynes. General Theory of Employment, Interest and Money. London. Macmillan & Co., Ltd. 1936. 403-p;
9. Mirziyoyev, Shavkat. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To'ldirilgan ikkinchi nashri. – Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2022. – B. 176.
10. Nick Srnicek. Platform Capitalism. Cambridge, United Kingdom. Polity Press. 2016. -P. 21-22.



11. Sebesta, R. W. Concepts of Programming Languages. Harlow, England. Pearson Higher Education. 2022. -P. 23-55, (776-p).
12. Shannon, C. E. The Mathematical Theory of Communication (1948, Bell System Technical Journal)
13. Turing, A. M. Computing Machinery and Intelligence (1950, Mind Journal)
14. Von Neumann, J. The Computer and the Brain (1958, Yale University Press)
15. Zuboff, S. (2019). The Age of Surveillance Capitalism: The Fight for a Human Future at the New Frontier of Power. PublicAffairs;



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 7

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
